

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI KUNDUZGI TA'LIM SHAKLI-
60111800 – XORJIY TIL VA ADABIYOTI(INGLIZ TILI)
TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI TALABALARI UCHUN
IKKINCHI MUTAXASSISLIK FANLARIDAN
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA

DASTURI

Andijon-2026

Andijon davlat chet tillari Instituti Ilmiy Kengashining 2026 yil 22 01 dagi
5sonli yig'ilish qaroriga muvofiq tasdiqlangan

Dastur Andijon davlat chet tillari institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Kafedra mudiri:

Fakulteti dekani:



O.B. Azamov

M.S. Pazilov



O'quv ishlari bo'yicha prorektor va b: K.N. Karimov

KIRISH

Ushbu dastur Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining taxsili olish mobaynida ikkinchi mutaxassislik va ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2025-2026 o'quv yili yakunida bitiruvchilardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29 avgustdagi 1-son bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlarida o'tkaziladigan fanlar tarkibi:

1. Nemis(fransuz) leksikologiyasi va stilistikasi;
2. Nemis adabiyoti;
3. Nemis tilida o'qish va yozish amaliyoti;
4. Nemis tili o'qitishning integrallashgan kursi

1. Nemis(fransuz) leksikologiyasi va stilistikasi

1-mavzu. Nemis tili stilistikasi fani, predmeti va vazifalari

Nemis tili stilistikasi — nemis tilidagi uslubiy vositalar va nutqning ifoda imkoniyatlarini o'rganuvchi fandir. Bu fan til birliklarining turli uslublarda qanday qo'llanishini tahlil qiladi. Stilistikaning predmeti nutq uslublari, badiiy tasvir vositalari hamda tilning emosional-ekspressiv xususiyatlaridan iborat. Uning asosiy vazifasi matnning uslubiy xususiyatlarini aniqlash va nutqning ta'sirchanligini o'rganishdir. Nemis tili stilistikasi til madaniyatini rivojlantirish va to'g'ri hamda chiroyli nutq tuzishda muhim ahamiyatga ega.

2-mavzu. Metodologiya.

Uslubiy leksika tarkibi: Adabiy so'zlar, neytral so'zlar, va og'zaki so'zlar. adabiy so'zlarning stilistik jihatlar va turlari: atama, arxaizm, neologizm, poetik so'zlar tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Og'zaki so'zlarning stilistik xususiyatlari va turlari: sleng, vulgarizm, evfemizm, sheva va jargon tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Tilda me'yor tushunchasi. Shaxsiy yondashuv va me'yor. Umumiy, adabiy, og'zaki va adabiy uslublar xususiyatlari. Registr tushunchasi.

3-mavzu. Funktsional uslub tushunchasi

Funktsional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari: she'riy, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publististik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va

vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning lisoniy xususiyatlari.

4-mavzu. Leksik stilistik vositalar.

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma'no turlari. Stilistik vositalarning tili sahlari aro turlanishi: metafora, meonimiya, ironiya, epitet, mubolag'a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so'z o'yini tushunchasi, lisoniy ahamiyati va vazifalari.

5-mavzu. Leksik vositalar og'zaki nutqda va fonetik mashqlar.

O'xshatish, perefaza, licota, gradatsiya, antieza, allyuziya, o'zlashtirma gap tushunchalari, ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

6-mavzu. Sintaktik stilistik vositalar.

Sintaktik stilistik vositalarning lisoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo'lakli gap, inversiya, parallel konstruksiya, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va ritorik so'roq gap. Og'zaki nutqda gap tarkibi o'zgarishlariga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan konstruksiya.

7-mavzu. Fonetik stilistik vositalar.

Fonetik stilistik vositalar nutqning tovush jihatidan ta'sirchanligini oshiruvchi usullardir. Ular munga ohanglorlik, emosionallik va badiiylilik beradi. Bunday vositalarga alliteratsiya, assonans, tovush takrori, urg'u va intonatsiya kiradi. Adabiyotda va she'riyatda fonetik vositalar o'quvchining diqqatini jalb qilish hamda his-tuyg'ularni kuchliroq ifodalash uchun qo'llanadi. Shu sababli fonetik stilistika tilning estetik imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

2. Nemis adabiyoti

1-mavzu: Die historische Entwicklung der deutschen Literatur

Nemis adabiyoti tarixi bir necha muhim davrlardan iborat bo'lib, har bir davr o'ziga xos badiiy xususiyatlarga ega. O'rta asr, Renaissance, Ma'rifatparvarlik. Romantizm va zamonaviy adabiyot bosqichlari nemis madaniyatining rivojlanishini aks ettiradi. Har bir davrda Goethe, Schiller, Heine kabi mashhur ijodkorlar yetishib chiqqan. Jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar adabiyot mavzulari hamda uslubiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

2-mavzu: Ritterliteratur und höfische Dichtung des Mittelalters

O'rta asr ritsarlik adabiyoti jасorat, sadogat va muhabbat g'oyalari tarqib qilgan. Saroy poeziyasi asosan qirolik saroylarida rivojlanib, na'fs uslub va romantik mavzular bilan ajralib turgan. Bu davrning mashhur mualliflari gatoriga Walthar von der Vogelweide va Wolfram von Eschenbach kiradi. Minne, ya'ni yuksak muhabbat tushunchasi ritsarlik adabiyotining asosiy mavzularidan biri bo'lgan.

3-mavzu: Literatur der Renaissance – Frühhumanismus und Realismus

Renaissance davri adabiyoti inson shaxsiga va ilm-fanga bo'lgan qiziqishning o'rtishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda o'rta asr diniy qarashlardan asta-sekin voz kechilib, dunyoviy fikrlash rivojlangan. Ilk gumanizm inson e'rkini va bilimning ahamiyatini targ'ib qilgan. Realistik tasvirlar orqali hayot voqealari tabiiy roq ifodalanishga boshlagan.

4-mavzu: Humanistische Ideen in der Literatur

Adabiyotdagi gumanistik g'oyalar inson qadr-qimmatini va tafakkur e'rkini o'z ichiga olgan. Gumanist yozuvchilar ilm-fan rivojlanishini targ'ib qilgan. Ular inson e'rkini, adolatsizlikni, diniy muammolar tanqid qilgan. Huttenning ijodi Reformatsiya harakatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

5-mavzu: Ulrich von Hutten – Biografie und Werk

Ulrich von Hutten nemis gumanisti va siyosiy yozuvchisi sifatida tanilgan. U erkin fikrlash va cherkov islohotlarini qo'llab-quvvatlagan. Uning asarlarida jamiyatdagi adolatsizlik va diniy muammolar tanqid qilingan. Huttenning ijodi Reformatsiya harakatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

6-mavzu: Einfluss auf die Reformationsbewegung. Erasmus von Rotterdam

Erasmus von Rotterdam Yevropa gumanizmining eng mashhur vakillaridan biri bo'lgan. U "Lob der Torheit" ("Ahmoqlik madhiyasi") asarida jamiyat va cherkovdagi kamchiliklarni hajv qilgan. Erasmus ilm-fan, axloq va ta'limni rivojlantirish tarafdori edi. Uning g'oyalari Yevropa ma'naviy taraqqiyotiga va Reformatsiya davriga katta ta'sir ko'rsatgan.

7-mavzu: Literatur der Reformationszeit – Martin Luther

Reformatsiya davri adabiyoti cherkovdagi muammolarni tanqid qilish bilan ajralib turadi. Martin Luther o'zining 95 tezisi orqali diniy islohotlarga asos soldi. Bu davr adabiyotida xalqning e'rkini va adolat uchun kurashi aks ettirilgan. Dehqonlar urushi bilan bog'liq asarlar jamiyatdagi tengsizlikni ko'rsatib bergan.

8-mavzu: Bürgerliche Literatur und Satire – Sebastian Brant, Hans Sachs

Burgerlik adabiyoti oddiy xalq hayoti va axloqiy qadriyatlarini tasvirlagan. Sebastian Brant va Hans Sachs asarlarida satira muhim o'rin tutadi. Ular jamiyatdagi nodonlik, ochko'zlik va adolatsizlikni kulgi usulida tanqid qilishgan. Bu ijodkorlarning asarlari nemis adabiyotida tanqidiy fikrlash rivojiga hissa qo'shgan.

9-mavzu: Romantik. Jenaer Romantik. Friedrich Schlegel

Yena romantizmi nemis romantik harakatining muhim makazlaridan biri hisoblanadi. Friedrich Schlegel romantizm nazariyasini rivojlantirib, ijod e'rkini targ'ib qilgan. Ilk romantizm hissiyot, tasavvur va tabiatga bo'lgan qiziqish bilan ajralib turadi. Schlegelning qarashlari keyingi romantik adabiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

10-mavzu: Romanistik. Friedrich Schiller. Heinrich Heine

Friedrich Schiller o'z dramalarida erkinlik va insoniylik g'oyalari yoritgan. Heinrich Heine esa lirika va ironiyani uyg'unlashtirgan mashhur romanistik shoiridir. Uning she'rlarida siyosiy tanqid va jamiyat muammolari aks etgan. Romanizm davri adabiyoti inson his-tuyg'ulariga katta e'tibor qaratgan.

11-mavzu: Die Literatur der Sturm-und-Drang-Periode

"Sturm und Drang" davri adabiyoti an'anaviy qoidalarga qarshi chiqishi bilan mashhur. Bu yo'nalishda hissiyot va individuallik birinchi o'ringa qo'yilgan. Goethe va Schiller ushbu davrning eng muhim vakillaridan hisoblanadi. Asarlarda erkinlikka intilish va yoshlarning ichki kechimalari tasvirlangan.

12-mavzu: Johann Gottfried Herder und Johann Christoph Gottsched

Johann Gottfried Herder xalq qo'shiqlari va milliy madaniyatning ahamiyatini ta'kidlagan. U tilni xalq ruhining ifodasi deb hisoblagan. Johann Christoph Gottsched esa nemis adabiyotida klassik me'yorlarni rivojlantirishga harakat qilgan. Ularning qarashlari bir-birdan farq qilsa-da, nemis adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

13-mavzu: Literatur des 18. Jahrhunderts und ihre kulturelle Bedeutung

XVIII asr adabiyoti Ma'rifa-parvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu davrda adabiyot inson aqli va ilm-fanning kuchini targ'ib qilgan. Falsafa va siyosiy qarashlar adabiy asarlarda keng yoritilgan. XVIII asr adabiyoti keyingi romanizm va realizm oqimlariga asos yaratgan.

14-mavzu: Gotthold Ephraim Lessing

Gotthold Ephraim Lessing nemis Ma'rifa-parvarlik adabiyotining yirik namoyandasi hisoblanadi. U dramaturg, tanqidchi va faylasuf sifatida faoliyat yuritgan. "Nathan der Weise" asarida diniy bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Lessing nemis teatrlar san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan.

15-mavzu: Beitrag zur Aufklärungsliteratur. Johann Wolfgang von Goethe

Johann Wolfgang von Goethe nemis adabiyotining eng buyuk ijodkorlaridan biridir. U Ma'rifa-parvarlik va romanizm davri adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Goyening asarlarida tabiat, muhabbat va inson ruhiyati chuqur tasvirlangan. Uning ijodi Yevropa adabiyotining rivojiga kuchli ta'sir qilgan.

16-mavzu: Themen und Motive

Nemis adabiyotida erkinlik, muhabbat, tabiat va inson ruhiyati asosiy mavzular hisoblanadi. Har bir davrda bu motivlar turlicha badiiy shaklda ifodalangan. Adabiyot jamiyadagi o'zgarishlar va insonning ichki kechimalarini aks ettirib kelgan. Nemis adabiyoti Yevropa madaniyati va jahon adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

3. Nemis tilida o'qish va yozish amaliyoti;

I-modul. O'qish moduli.

- asarlardan keltirilgan parchalar;
 - internet matnlari (bloglar, veb-saytlar);
 - qo'llanmalar, instruksiyalar (texnik vosita va asboblarning uchun);
 - ensiklopedik maqolalar;
 - professional mavzulardagi maqolalar (chet tili o'qitish, o'qitish muammolari, metodlari, o'qitish tizimidagi yangiliklar yoritiladigan jurnallarda berilgan maqolalar);
 - ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar.
 - ekstensiv o'qish (badiiy o'qish)
 - intensiv o'qish (ma'lumot uchun o'qish, tushunish uchun o'qish)
 - tayyorlangan dars rejalarning muayyan kontekstga muvofiqligini baholash;
 - ma'lum kontekst uchun dars rejasini tuzish.
 - muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash;
 - tahlil qilish;
 - sintez qilish;
 - o'qish sifatini aniqlash.
- #### I-modul. Yozish moduli
- Xatlar va rasmiy hujjatlar:
- rasmiy xatlar;
 - ariza;
 - ilova xati;
 - tavsiyanoma;
 - tushuntirish xati va b.
 - topshiriqlarga asoslangan amaliy ish;
 - turli matnlar tahlili (gazeta, jurnal maqolalari)
 - matnlarni o'rganilayotgan chet tili va ona tilida parallel, qiyoslagan holda tahlil qilish;
 - darsdan tashqari yozma vazifalar;
 - ilmiy ish rejasini puxta tuza olish;
 - o'z ilmiy ishi mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishib, ularni tahlil qilish;
 - o'z ustida va guruhdagi do'sti bilan ilmiy ish mavzusi va yozish uslubini ustida ishlashni bilish;
 - ma'lumotlarni turli grafik va jadval shaklida taqdim etish;
 - ilmiy ish uchun annotatsiya yozishni bilish;

4. Nemis tili o'qitishining integrallashgan kursi

I-mavzu: Lernen. Analysieren und Arbeiten mit Bildungsprogrammen für Schulen, Lyzeen und Hochschulen

Ta'lim dasturlari o'quv jarayonini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi dasturlarni tahlil qilib, ularning maqsad va vazifalarini tushunishi kerak. Maktab, litsey va oliy ta'lim muassasalarida dasturlar bir-biridan farq qiladi. Ular o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga moslashtiriladi.

2-mavzu: Lernziele. Aktivität des Lehrers und Schülers im Unterricht
Darsning maqsadi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdir. O'quvchi darsni tashkil qiladi va yo'natiradi. O'quvchilar esa faol qatnashib, topshiriqlarni bajaradilar. Hamkorlikdagi faoliyat dars samadorligini oshiradi.

3-mavzu: Soziale Gruppen. Gruppierungsmethoden
Guruh bilan ishlash o'quvchilarning mulqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi o'quvchilarni turli usullar bilan guruhlarga ajratishi mumkin. Guruhli ish o'zaro yordam va fikr almashishga imkon yaratadi. Bu usul darsni yanada faol qiladi.

4-mavzu: Auswahl und Vorbereitung von Lernmaterialien (für 1-4 Kl.)
Boshlang'ich sinflarda materiallar sodd va qiziqarli bo'lishi kerak. Rasmlar, o'yinlar va qisqa matnlar keng qo'llanadi. Materiallar bolalarning yosh xususiyatiga mos tanlanadi. Bu o'quvchilarning tilga qiziqishini oshiradi.

5-mavzu: Auswahl und Vorbereitung von Lernmaterialien (für 5-8 Kl.)
O'rta sinflarda materiallar murakkabroq bo'la boshlaydi. Matnlar va mashqlar o'quvchilarning bilim darajasiga mos bo'lishi kerak. Audio va video vositalardan foydalanish foydalidir. Bu til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

6-mavzu: Auswahl und Vorbereitung von Lernmaterialien (für 9-11 Kl.)
Yuqori sinflarda materiallar chuqurroq va murakkabroq bo'ladi. O'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rgatiladi. Autentik matnlar va ilmiy materiallardan foydalaniladi. Bu ularni imtihon va kelajakdagi ta'limga tayyorlaydi.

7-mavzu: Optimierung authentischer Lernmaterialien
Autentik materiallar real hayotdan olinadi. O'quvchi ularni o'quvchilarning darajasiga moslashtirishi kerak. Ba'zi murakkab joylar soddalashtiriladi. Shu orqali materiallardan samarali foydalanish mumkin bo'ladi.

8-mavzu: Phasen der Lektion. Einführung
Kirish qismi darsning boshlanish bosqichidir. Bu bosqichda o'quvchilar yangi mavzuga tayyorlanadi. O'quvchi qiziqarli savollar yoki rasmlar orqali e'tiborni jalb qiladi. Yaxshi kirish darsga motivatsiya beradi.

9-mavzu: Modelle und Methoden zur Planung von Deutschunterricht
Nemis tili darsini rejalashtirishda turli metodlardan foydalaniladi. Har bir metodning o'z afzalligi mavjud. O'quvchi dars maqsadiga mos usulni tanlaydi. To'g'ri rejalashtirish dars sifatini oshiradi.

10-mavzu: Phasen der Lektion. Präsentation
Prezentatsiya bosqichida yangi mavzu tushuntiriladi. O'quvchi grammatika yoki lug'atni misollar bilan ko'rsatadi. O'quvchilar yangi ma'lumotni tinglaydi va tushunadi. Bu bosqich keyingi mashqlar uchun asos yaratadi.

11-mavzu: Phasen der Lektion. Abschluss
Darsning yakuniy bosqichida o'tilgan mavzu umumlashtiriladi. O'quvchi asosiy fikrlarni qayta takrorlaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini namoyish qiladilar. Yakun qismi darsni mustahkamlashga yordam beradi.

12-mavzu: Die Aufgaben für verschiedene Phasen des Unterrichts
Har bir dars bosqichi uchun alohida topshiriqlar tanlanadi. Kirish qismida motivation vazifalar beriladi. Asosiy bosqichda amaliy mashqlar bajariladi. Yakuniy bosqichda esa bilimlar mustahkamlanadi.

13-mavzu: Stundenplanung
Dars rejalashtirish o'quvchining asosiy vazifalaridan biridir. Rejada mavzu, maqsad va topshiriqlar ko'rsatiladi. To'g'ri reja vaqtini samarali taqsimlashga yordam beradi. Bu darsning tartibli o'tishini ta'minlaydi.

14-mavzu: Unterrichtsplanung in Gruppen von Schülern mit unterschiedlichen Fähigkeiten
Har xil qobiliyatga ega o'quvchilar bilan ishlash alohida yondashuvni talab qiladi. O'quvchi topshiriqlarni differensial tarzda tayyorlaydi. Kuchli va sust o'quvchilar uchun alohida vazifalar beriladi. Bu barcha o'quvchilarning rivojlanishiga yordam beradi.

15-mavzu: Einsatz verschiedener Methoden bei der Unterrichtsplanung
Darsni rejalashtirishda turli metodlardan foydalanish muhimdir. Interfaol usullar o'quvchilarni faol qiladi. O'yin, suhbat va loyiha metodlari samarali hisoblanadi. Turli metodlar darsni qiziqarli qiladi.

16-mavzu: Unterrichtsbeobachtung und -analyse
Darsni kuzatish va tahlil qilish o'quvchining rivojlanishiga yordam beradi. Kuzatish orqali kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi. Tahlil natijasida yangi metodlar qo'llanishi mumkin. Bu dars sifatini oshiradi.

17-mavzu: Beobachtungsphasen

Kuzatish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avval rejalashtirish, keyin kuzatish va oxirida tahlil qilinadi. Har bir bosqichning o'z vazifasi mavjud. Tizimli kuzatish samarali natija beradi.

18-mavzu: Beobachtungsziele

Darsni kuzatishning asosiy maqsadi ta'lim sifatini yaxshilashdir. Kuzatuvchi o'quvchilarning faolligini va o'quvchining metodlarini o'rganadi. Bu orqali muammolar aniqlanadi. Keyinchalik ularni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

19-mavzu: Beobachtungsschwerpunkte

Kuzatishda asosiy e'tibor ma'lum jihatlarga qaratiladi. Masalan, o'quvchilarning ishtiroki yoki o'quvchining nutqi kuzatiladi. Shuningdek, metod va materiallarning samaradorligi baholanadi. Bu darsni yanada takomillashtirishga yordam beradi.

20-mavzu: Systematisches Erfassen des Unterrichtsgeschehens

Dars jarayonini tizimli qayd etish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali barcha faoliyatlar hujjatlashtiriladi. O'quvchi keyinchalik o'z ishini tahlil qilishi mumkin. Tizimli yondashuv ta'lim sifatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

20 — yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'iga asosan

2-§. Talabalar bilimini baholash mezonlari

15. Talabalarining bilimni quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talabalar uchun xar bir mutaxassislik fanidan 1 donadan jami 4 ta savoldan iborat билет etilib:

1-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

2-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

3-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
4-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
jami: 100 ballikda
bilimi aniqlanib, Nizomning I-jadvaliga muvofiq bitiruvchining baxosi
qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi
to'g'risidagi Nizomga

ILOVA

I-jadval

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish

JADVALI

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Asosiy o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar

1. Fix Ulla, Poethe Hannelore, Yos Gabriele, "Textlinguistik und Stilistik für Einsteiger", Leipzig, 2001
2. Gennadiy W. Pan, "Deutsche Stilistik", "Toshkent", Toshkent, 2010
3. E. Riesel, "Deutsche Stilistik", "Hochschule", Moskva, 1975
4. E.M. Карпина. Основы теории немецкого языка. Пенза 2013
5. Autorenkollektiv. Sprache. Gegenwart und Geschichte. Pädagogischer Verlag Schwann. Düsseldorf. 1969.
6. Bergmann. Pauly. Moulin. Alt- und Mittelhochdeutsch. Vandenhoeck und Ruprecht. Göttingen. 2007.
7. Nübling Damaris. Historische Sprachwissenschaft. Gunter Narr Verlag. Tübingen. 2008.
8. Karimov SH. Nemis adabiyoti tarixi. -T "Mumtozso'z" 2010.
9. Wissen und literarisches Lernen / Grundlegende theoretische und didaktische Aspekte. Frankfurt am Main 2016.
10. Т.Ю. Глазова. Немецкоязычная литература. Учебное пособие. Москва Издательство «Флинта» Издательство «Наука» 2010.
11. Baxtiyor Rizaev, Alisher Mahmudov. Nemis adabiyoti (ikkinchi jahon urushi davri) (Uslubiy qo'llanma). Qarshi «Intellekt» nashriyoti – 2023
12. Luftulla Holiyarov. Zeigenossische Österreichische Literatur. Taschkent 2007.
13. Зарубная литература второго тысячелетия. 1000-2000. Учеб. пособие. Под ред. Л.Г. Андреева – М.: Высшая школа, 2001.
14. Geschichte der deutschen Literatur. Moskau. „1990 Visschaya Shkola“
15. Sandra Hohmann. Deutsch intensiv. Lesen B1. Das Training. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart, 2020.
16. Sandra Hohmann. Deutsch intensiv. Lesen B2. Das Training. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart, 2022.
17. Christian Seiffert. Deutsch intensiv. Schreiben B1. Das Training. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart, 2018.
18. Sandra Hohmann. Deutsch intensiv. Lesen B2. Das Training. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart, 2019.
19. Arwen Schnack. Deutsch intensiv. Wortschatz B2. Das Training. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart, 2020.
20. Anneli Billina. Deutsch üben. Lesen & Schreiben B1. Hueber Verlag, München, 2018.
21. Anneli Billina. Deutsch üben. Lesen & Schreiben B2. Hueber Verlag, München, 2018.
22. Kaity Papadopoulou, Daniela Paradi-Stai, Agapi Virginia Spyralou. Lesetraining B2. KARABATOS - Verlag, Athen, 2016.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <http://www.literatur.hu-berlin.de/>
4. <http://de.wikipedia.org/wiki/Realismus>
5. http://www.cdmnet.net/kb/data/DE_Epochen.asp
6. <http://www.literaturwelt.com/epochen.htm>
7. http://www.pinselpark.org/geschichte/spezif/literatur/epochen/1794_romantik.htm
8. http://www.pinselpark.org/geschichte/spezif/literatur/epochen/1786_klassik.html
9. http://www.pinselpark.org/geschichte/spezif/literatur/epochen/1815_biedermeier.html
10. http://www.pinselpark.org/geschichte/spezif/literatur/epochen/1880_naturalismus.html
11. <https://www.dwds.de> - DWDS korpuslilug'atizimi (ma'no, sinonim, stilistik qatlam)
12. <https://www.duden.de> - Duden onlayn versiyasi, stil va grammatika bo'yicha izohli ma'ba
13. <https://wortschatz.uni-leipzig.de> - Nemis tildagi statistik va leksik tahlillar bazasi